

Men Vayisova Dilnurabonu “Mushoira” klubi(rahbari Nasiba Norova) va “Yosh tanqidchilar”(rahbari Shohsanam Davronova) to’garagiga a’zoman.Bu klub va to’garaklar faoliyati jarayonida tashkil qilinayotgan badiiy kechalar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda qatnashib kelyapman.



Mushoira klubida qatnashish jarayonida ustozimiz Nasiba Norova ko’maklarida yutuqlarga erishdim, ijodiy ishlarim “Buxoro universiteti” gazetasida chop etildi:

**6** BUXORO UNIVERSITETI 30.10.2024

## KO'P TILLILIK - XAZINALAR KALITI, MILLIY TILCHI?

Til har bir millatning ko'zusi, uning sarchashmasidir. Men har safar milliy til haqida yozishni boshlasam, Vatanim, oilam, otanonam, bolaligim, o'zligim, q ururim haqida yozayotgandek bo'lave-raman. Chunki tilim menga onamning jozibali alasi, ota-bobalarim, ajdodlarim ruhi bilan singgan, shu tilde ilk so'zimni aytaolman. Xo'sh, milliy til o'zi nima? -lahon miqosida millatning millat sifatida yashamoq! Unga qay darajada bog'liq?

Biz milliy o'zlik, milliy qadriyat va urf-odatlar haqida, ularni asrab-ayaylash va kelajak avlodga yetkazish haqida kuyunib gapiramiz. Aslida mana shu qadriyatlarimiz avlodlarga olib o'tguvchi ham, ularning borligini ayon qiluvchi ham, buyuk tariximizni kelajak avlod sari yetaklaguvchi ham til, ona tilimiz emasmi?

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 7 mingdan ortiq tillar muomalada bo'lib, dunyo aholisining 90 foizi 70 ta tilda so'zlashadi. 200 ta til davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega. Bugungi kunda dunyoning 50 milliondan ortiq aholisi o'zbek tilida so'zlashib, bu tilda so'zlashuvchilar soni bo'yicha dunyoda 27-o'rinda turadi. O'zbek tili dunyoning 60 dan ortiq universitetlarida, 200 dan ortiq maktablarda o'qitiladi.

Xalqimizning ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti natijasi bo'lgan o'zbek tili jahondagi qadimiy va boy tillardan hisoblanadi. Istiqlol yillarida esa ona tilimiz tom ma'noda xalqimizni erkin va ozod yashashga safarbar etadigan kuch sifatida maydonga chiqdi. Milliy tilimiz, ona tilimizga bo'lgan e'tibor nafaqat bugungi kunda, balki tarixda ham dolzarb ahamiyat kasb etgan: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgon oyinayi hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdur"(A.Avloniy).

Biz hozirgi kunda rus, ingliz yoki boshqa jahon tillariga, ularni o'rganishga ko'p ahamiyat beryapimiz-u, biroq ona tilimiz bir chekkada qolib ketgandek, nazarimda. To'g'ri, ko'p tili bilish sazilar kaliti, lekin o'zbek tilida mavjud bo'lgan ayrim so'zlarning rus tilidagi aynan o'sha so'zga mos tushadigan muqobil yo'q. Men bu bilan boshqa tillarni kamsitmoqchi emasman, balki o'zbek tilim, milliy ona tilim menga o'z namdek aziz ekanini va bu tili yaxshi ko'rishimni atymoqchiman, xolos.

Yaqinda shunday voqea ro'y berdi: ingliz tilini bilishini belgilovchi "sertifikat" bo'lmaganligi sababli ko'plab yoshlar magistraturaga hujjat topshira olmadim, natijada ajratilgan o'rin bo'sh qolib ketdi. Mantiqan olganda, bu to'g'rim? Nega qaysidir sohaning yaxshi mutaxassisi bo'lsa, ona tilida ravon gapirsa-da, xorijiy tili bilmagani uchun o'qishni davom ettira olmasligi kerak? Men kelajak avlodning til o'rganishiga qarshi emasman, faqat "Xorijiy tili bilmaganing, o'z yurtidagida, ona tilida saboq beriladigan oliy ta'lim muassasasida o'qishga kira olmasan" deyish ona tilimizga nisbatan hurmatsizlik emasmi? "Har bir millat o'z tili bilan faxr etar" - deb haq gapni aytgan edi Behbudiy bobomiz. Biz xorijiy tillarni yuqori o'ranga qo'yganimiz bilan, u bizning o'z ona tilimiz darajasida bo'lmaydi. Biz o'z tilimiz bilan faxrlanamiz. Shunday ekan, bizni mana shunday yorug' kunlarga yetaklab kelgan, ajdodlarimiz meroslarini keyingi salsilalarga yetkazishda xizmat qilayotgan, onamizning aliasi bilan qon-qonimizgacha singib ketgan milliy tilimizni asrash har birimizning burchimizdir.

**Dilnurabonu VAYISOVA, BuxDU 1-bosqich magistranti.**

**8** BUXORO UNIVERSITETI 30.10.2024

## She'riyat bo'stoni

### ONA BOR ONA

Og'riqlar yurakka berganda zarba, O'sha payt Xudoga qilsan tana. Nimani sohlaysan ayt undan yana. Dardlaring tinglaguvchi ona bor ona.

Har laha yoningda bo'lar parvona, Ul zotning nomini deydilar ona. Bir shirin so'zdingan ketar quvona, Yo'rlaringda zor bo'lib kutar ostona.

Yuraging e'zisa borgun qay yona, Sen kabi inson bormi ayt ona? Xasta bo'lsam bo'lursan misli devona, Telbalar singiri ke'zib har yovona.

**Muxlisa SIROJIDDINOVA**  
Buxoro Davlat Universiteti Filologiya fakulteti talabasi

### ONA JON TILIM

Ming yillar zarbidan omon qolganim, Gar xo'rinsa-da, qaddin tutolganim. She'rlarni buland kayga solganim. Sen onam tilisan, onajon tilim.

O'rman-Evrosiyda sening tarixing, "Devoni-lug'otini tark" kitobida. Yangi so'z Hajitda, Mahmud Koshg'arda. Qo'lindagi mushk-unbar gulimsan tilim.

Navoiy-ku seni jondan kuyiladi, Shoh Bobur-u, Yig'nakiy ham kuyiladi. Boboldan meros qolgan tilimsan, Sen onamsan, onajonim tilisan.

Mirtemirsan, Abdullusan, Sayyonsan, Qodriyusan, Cho'pon-u, Firradirsan. Bizga meros bo'lgan e'zga tilimsan, Ik zabonim chiqqan, so'zsizsan tilim.

Bu kun seni kuyilash menga sharaftdir, Nomingni dunyo bilsin, atizim, tilim. Solg'ingni xalqim andoqlab yursin, Yuragimda tungan gulimsan, tilim.

**Dilnurabonu VAYISOVA, BuxDU 1-bosqich magistranti.**

### TO'P-TO'P OLMALA.

O'ylar uyg'og' tunning bag'rida: Gunohlarim burchalar ham ko'p..? Xoyolimi kesib yurmida - Yiqiladi olmalar to'p-to'p.

Men qaryayman onamga mahtun, Nafaslarim burchalar og'ir?! Yuragingga botar ucun tun, Chorasi'lik - sarhadisiz manzil.

Qulbga borar tor yo'llarim bor, Tor je'lmdan qoraygan bari. To'p-to'p yulduz olmalar takror, Yiqiladi qurtlaganlari.

Qarang, qanday poklanar ajib, Daraxtlarda bor sirlir xilqat. Ul qurtlagan mevasini to'kib, Tanasida qoldirmaydi gard.

Garchi yashar tirik yashilik, Rahimda-chi, kuzning samuni. Qo'l-oyog'im, boshim - xam, egik, Ortirganim dunyoda shuni?

Sarg' ayarman so'zni sayin, Daraxti bo'lib qilgum iljoj; Shu to'kilgan olmalardayin Gunohlarim to'kgin, ey, Xudo!

**Sevinch JURAQU.**

### OTA SIZNI XURSAND QILGAN BO'LAR.

Beminat ilgan melirini barm, Ondayin ussonni topish ham qiyin. Yuragi e'zisa bildirmay og'in, Ona sizni xursand qilgan bo'lardim.

Era-yu kech bizni deb yelib tolmagan: Sani og'risa ham bolam demagan - Bizga yedirgan o'zi yemagan, Ona sizni xursand qilgan bo'lardim.

Ba'zan ko'nglin og'irib qo'yumiz rosti, Ajnaldan to'libdi ko'zingiz osti. Dunyoning ham sizdan bormidi gashdi, Ona sizni xursand qilgan bo'lardim.

Baribir yoshimda o'kazib so'zim, Hali berti ochilmaydi bu qovnoq ko'zi. Sochingiz o'qiga sababchi o'zim, Ona sizni xursand qilgan bo'lardim.

Zor bo'lib yuribman bugun darvizda, Faxrlarim yuraman sizni ortida. Bilasizku, men sizni orka qizda, Ona sizni xursand qilgan bo'lardim.

**Muxlisa SIROJIDDINOVA**  
BuxDU Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Mushoira klubi ishtirok etish jarayonida Milliy tiklanish demokratik partiyasi Buxoro viloyati bo'limi tomonidan tashkil qilingan “XXI asr ayoli” Respublika ko'rik-tanloving viloyat bosqichida 3-o'rinni egalladim:



(Rasmda chapdan ikkinchi)

2025-yil 6-may kuni Filologiya fakulteti islohotlar markazida "Yosh mantshunoslar" va "Yosh tanqidchilar" to'garagi a'zolari, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi raisi Shamshod Ochilov, jurnalist va yozuvchi Obid Qo'ldosh bilan birgalikda Buxoro adabiy harakati vakili, jurnalist, ijodkor Mahbuba Xolova bilan ijodiy uchrashuv tashkil etildi. Mazkur uchrashuvda men ham qatnashdim.

